

2020- yil yakuni



NAVOIY VILOYATIDA FAN VA INNOVATSIYALAR TO'G'RISIDA



*Navoiy viloyati
statistika boshqarmasi*

Fan va innovatsiya

Barchamizga ma'lumki, keyingi yillarda barcha sohalarda bo'lgani kabi ilm-fan va innovatsion tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, bu borada yaratilgan har qanday ilmiy natijalarni ishlab chiqarishni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 7- maydagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohasiga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3698-sonli qarori mazkur yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlarga dasturiy amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Quyidagi rasmda ilmiy tadqiqot ishlari 4 ta sektorga ajratib ko'rsatilgan:



3

Davlat sektori

1

Tadbirkorlik sektori

2

Oliy ta'lim sektori

1

Xususiy notijorat sektor

Navoiy viloyati bo'yicha tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar, qabul qilinganlar va bitiruvchilar soni
(2020- yil oxiriga, kishi)



Tahsil oluvchilar

56


Qabul qilinganlar

34

Bitiruvchilar

6


Tayanch doktorantura institutlarida tahsil olganlar
(yil oxiriga, kishi)



2020- yilda tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar 56 nafarni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 24 taga (75,0 %) ko'paygan.

2020- yilda viloyatimizda tayanch doktoranturasi mavjud tashkilotlarning umumiy soni 3 tani tashkil etib, ulardan 1 tasi ilmiy tashkilot va 2 tasi oliy ta'lim tashkilotlari tashkil etadi. Ularda tahsil oluvchilar soni 56 nafar bo'lib, qabul qilinganlar 34 nafarni va bitiruvchilar 6 nafarni tashkil etgan.

Viloyatda fan sohalari bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi-tayanch doktorantura institutlarining asosiy ko'rsatkichlari (2020- yil oxiriga)



2020- yil oxirida fan sohalari bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi-tayanch doktorantura institutlarining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha qabul qilingan falsafa doktori jami 34 kishini tashkil etib, shundan tabiiy fanlar bo'yicha 14 kishi, texnika fanlaridan 3 kishi, boshqa fanlari bo'yicha esa 17 kishini tashkil etgan.


Navoiy viloyati bo'yicha doktoranturasi mavjud tashkilotlar soni (2020- yil oxiriga, birlikda)

Jami tashkilotlar
soni


Jami
tashkilotlar



Ilmiy
tashkilotlar



Oliy ta'lim
tashkilotlari



2020- yilda jami tashkilotlar soni 2 tani tashkil etib, ulardan Ilmiy tashkilotlar 50,0 % ga (1 ta) va Oliy ta'lim tashkilotlar ham 50,0% ga (1 ta) to'g'ri kelmoqda. 2019- yilda bu ko'rsatkich 1 tani tashkil etgan.



Navoiy viloyatida oliy ta'lim tashkilotlarining faoliyati ilmiy-pedagogik xodimlarini qo'shgan holda, ilmiy daraja va ta'lim darajasi kesimida xodimlar soni
(2020- yil oxiriga, kishi)

1384

Jami:

Kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat

25

566

Ishlab chiqarish sanoati

Ta'lim

786

7

San'at, ko'ngil ochish va dam olish

Navoiy viloyatida o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar,
ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar
va tashkilotlar soni
(2020- yil oxiriga, birlikda)

Jami

395

**2020- yilda birinchi marta
o'zlashtirgan**

263

**2018-2019 yillarda birinchi
marta o'zlashtirgan**

128

**2018-2020 yillarda
takomillashtirgan**

15



2020- yil oxiriga o'z
kuchi bilan innovatsion
mahsulotlar, ishlar,
xizmatlar ishlab chiqargan
korxonalar va tashkilotlar
jami 395 tani tashkil etdi.



Navoiy viloyatida o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar,
ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan kichik korxonalar va
tashkilotlar soni
(2020- yil oxiriga, birlikda)

Jami

393

2020- yilda birinchi marta o'zlashtirgan

261

2018-2019 yillarda birinchi marta o'zlashtirgan


126

2018-2020 yillarda takomillashtirgan

14


2020- yilda innovatsion loyihalarni amalga oshirgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 393 tani tashkil etdi.

Navoiy viloyatida o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni
(2020- yil oxiriga, birlikda)



Innovatsion korxonalar bu– belgilangan statistik hisob davrida ma'lum bir innovatsiyani joriy qilgan korxonalar hisoblanadi. Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, innovatsion ishlarni bajarayotgan tashkilotlar soni 395 tani tashkil etgan bo'lsa, ulardan eng yuqori ko'rsatkich Xatirchi tumaniga to'g'ri keldi va uning soni 91 tani tashkil etdi. Eng kam ko'rsatkich esa Uchquduq tumaniga to'g'ri keldi ya'ni 3 tani tashkil etdi.



Navoiy viloyatida o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(2020- yil oxiriga, birlikda)



Innovatsiya ta'rifi bo'yicha, tashkilot uchun yangi, ichki bozor uchun yangi yoki butun dunyo uchun yangi bo'lgan ma'lum miqdordagi yangilikni o'z ichiga oladi. 2020- yilda o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha jami soni 393 birlik bo'lib, shundan yuqori ko'rsatkichlar Xatirchi tumanida 91 ta va eng kam ko'rsatkich esa Uchquduq tumaniga to'g'ri keldi, ya'ni 3 tani tashkil etdi.

O'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni (yil oxiriga, birlikda)

2020- yil oxiriga Navoiy viloyatida o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni 393 tani tashkil etgan bo'lib, 2016- yilda bu ko'rsatkich 119 tani tashkil etgan. 2020- yil oxiriga nisbatan 3 martaga ko'paygan.



Navoiy viloyati bo'yicha joriy qilingan innovatsiyalar soni
(2020- yil oxiriga, birlikda)



Innovatsiyalar 3 turga bo'linadi. Bular texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalardir. 2020- yilda jami joriy qilingan innovatsiyalar 393 tani tashkil etib, shundan 392 tasi texnologik innovatsiyalar, 1 tasi marketing innovatsiyalardir. Innovatsion faoliyat – g'oyalar transformatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni bozor uchun joriy etish bilan hamohang bo'lgan faoliyat hisoblanadi.

Navoiy viloyati bo'yicha joriy qilingan texnologik innovatsiyalar soni (2020- yil oxiriga, birlikda)

Texnologik innovatsiyalar 2 turga bo'linadi:

329

Mahsulotlar bo'yicha

63

Jarayonlar bo'yicha



Texnologik innovatsiyalar 2 turga bo'linadi. Bular mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar va jarayonlar bo'yicha innovatsiyalardir. 2020- yilda jami joriy qilingan texnologik innovatsiyalar 392 tani tashkil etib, shundan 329 tasi mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar, 63 tasi va jarayonlar bo'yicha innovatsiyalardir.

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Tel.: (79) 223-54-98